

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZINING XARAKTERI VA PORTRETI TASVIRI

Shoxista Mahmudova Abdusalomovna,

Alfraganus University Sharq filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: shohistaxon.mahmudova@gmail.com

ORCID: 0009-0003-1095-1723

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining iste’dodli yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “Yozuvchi”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” kabi hikoyalarida ijodkor obrazining xarakteri va portreti tasvirini yaratishdagi mahorati badiiy-ilmiy fikrlar asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijod, uslub, portret, syujet, xarakter, obraz.*

Аннотация: *В данной статье на основе художественно-научных соображений анализируется мастерство талантливого писателя узбекской литературы XX века Шукура Холмирзаева в создании образа и портрета создателя в таких рассказах, как “Писатель”, “Солнце бродит по небу”.*

Ключевые слова: *творчество, стиль, портрет, сюжет, характер, образ.*

Abstract: *In this article, the skill of the talented writer of Uzbek literature of the 20th century Shukur Kholmirezayev in creating the image of the character and portrait of the creator in such stories as “The writer”, “The Sun is wandering in a catastrophe” was analyzed on the basis of artistic-scientific ideas.*

Key words: *creativity, style, portrait, plot, character, image.*

Bugungi XXI asr hikoya va qissachiligida ijodkor ruhiyatining betakror, tizginlanmagan, jo‘shqin va tushkun iztiroblarini tasvirlash yozuvchilarning asosiy maqsadiga aylangan. Jumladan, Sh.Xolmirzayevning “Yozuvchi”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” kabi hikoyalarida ijodkorning qalb iztiroblari, orzu-armonlari va ijod dardidagi kurashlari ifodalanadi. Ijodkor kim? Ijodkor – rassom, ijodkor – haykalto‘rash, ijodkor – bastakor, ijodkor – yozuvchi... Ular inson ruhiyatidagi nozik his-tuyg‘ularni, azob-uqubatlar, quvonch va baxtni tasvirlash orqali san’atni yaratadi. Haqiqatan ham, hayotda ijodkorlik ruhiyati va his-tuyg‘ulari o‘zini ifoda etadigan kishilarning faoliyati ijod hisoblanadi. Ijodkorlik – bu ularning yashash tarzidir. Shu bois, biz ijodkorlarni doimo kuzatish, ularni tahlil qilish, ularning asarlarini o‘rganish, ilhomga to‘lishi, ruhiy va jismoniy bezovtalikda qiyinchiliklarga duchor bo‘lishlarini kuzatish bilan shug‘ullanib kelmoqdamiz. Ijodkorlarning nafaqat asarlari, balki ularning iste’dodi, ijodiy kamoloti, dunyoqarashi, ideallari, madaniy saviyasi, turmush tarzi va shaxsiy fazilatlarini kitobxonlarni doimo qiziqtirib keladi.

Badiiy adabiyotda obrazning ahamiyati hech qachon unga ajratilgan sahifalar soni bilan o‘lchanmaydi, balki uning psixologik chuqurligi va xarakterining to‘liq

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ifodalanganligi bilan baholanadi. O‘zbek nasrida psixologizmning chuqurlashishi va qahramon ruhiyatining tundan qora qatlamlariga nazar tashlash, inson umrining mazmuni haqida chuqur mulohazalar yuritish o‘tgan asrning oxirlarida yuz berdi. Shu davrda psixologizm deb ataladigan alohida janr shakllana boshladi. “Asarlarning nasrga yaqinlashuvi – ruhiyat olamini aks ettirish, ramzlarning noziklashuvi, moddiy tushunchalarning tuyg‘u bilan bog‘liq bo‘lib, ruhiy-ma’naviy tasavvurlar olamiga muhim o‘rin berilishi” singari belgilar namoyon bo‘ldi.

Psixologik tahlilni ichki va tashqi shakllarda tasvirlash mumkin. Ichki shakllar personajning o‘ylari, xotiralar va tasavvurlarini aks ettiradi, tashqi shakllar esa muallif nutqi, mimesis, va boshqa fiziologik holatlar orqali personajni tasvirlaydi. Yozuvchi hislarning obyektiv jarayonlariga xalaqit bermasdan, qahramonning ichki dunyosida kechayotgan o‘zgarishlarni ifodalaydi.

Badiiy adabiyotda qahramonning tasvirini yaratish san’ati alohida an’analarga ega. Qadim zamonlardan buyon adiblar qahramonlarning ichki dunyosidagi muammolarni, ruhiyatidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda portretlardan foydalanib kelgan. Ba’zi yozuvchilar asarni portret orqali boshlasa, boshqalari uni keyinroq qo‘llashadi. Lekin portret qahramonning xarakterini, ichki dunyosini ochishga xizmat qilsa, o‘z o‘rnini topgan hisoblanadi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida o‘z zamonasi, jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va insoniyatning ichki dunyosiga oid masalalarni yoritishda katta mahorat ko‘rsatgan. Uning ijodida ijodkor obrazlari, ularning xakteri va portret tasvirlari alohida o‘rin tutadi.

Adibning hikoyalaridagi ijodkor obrazlari, odatda, murakkab va ko‘p qirrali shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ular o‘zlarining ijodiy faoliyatida yuzaga kelgan ichki kurashlar, ruhiy zo‘riqishlar va jamiyatning bosimlariga qarshi turishda ko‘rsatiladi. Ijodkorlarning xakteri ko‘pincha ularning atrofdagi dunyo bilan munosabatlaridan, o‘z ideal va qadriyatlariga sodiqligidan hamda yaratgan asarlari orqali o‘zini anglash istagidan kelib chiqadi. “Yozuvchi” hikoyasida ijodkor obrazining murakkabligi, uning ichki dunyosi va yaratuvchilik jarayonida duch kelgan muammolar tasvirlanadi. Yozuvchi o‘z asarida ijodkorlikni faqat tashqi faoliyat sifatida emas, balki uning ruhiy va ma’naviy holatini ifodalovchi jarayon sifatida ko‘rsatadi. Bu obrazlar, odatda, o‘z ichki his-tuyg‘ularini va ijtimoiy rolini tushunishga intiladilar, lekin atrofdagi jamiyatning bosimi ularni qiyinchiliklarga duchor qiladi.

Adib hikoyalarida ijodkorlarning xakterlari ko‘pincha muammolarni yechishga, o‘zgarishga yoki o‘zini anglashga qaratilgan. Bunda ularning o‘zlari va atrofidagi dunyo bilan bog‘liq bo‘lgan ichki kurashlar, kelajakdagi maqsadlar va

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

umidlar ko‘rsatiladi. Hikoyalarda ijodkorlarning xarakteri, jamiyatning madaniy va axloqiy me‘yorlariga qarshi turish va shaxsiy erkinlikka erishish istagi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday tasvirlar shaxsiyatning o‘zgarishini va uning kashfiyotlarini tasvirlashda muhim o‘rin tutadi.

Adibning hikoyalari o‘ziga xos bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotidagi ijodkor obrazining portretini yaratishda alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi asarlarida ijodkor obrazining tasviri ko‘pincha ikki tomondan yoritiladi: bir tomondan, u o‘zining ichki dunyosini, hayotini, mehnatini tasvirlab beradi, boshqa tomondan esa jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy o‘zgarishlarga, o‘zbek xalqining kundalik hayotiga oid tasvirlar orqali ijodkorning roli va tasavvuri shakllantiriladi.

Yozuvchi hikoyalarda ijodkor obrazining eng ko‘zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri uning ichki kurashlari, o‘ziga nisbatan yuqori talablar qo‘yishi va shaxsiy izlanishlari hisoblanadi. Yozuvchi ijodkorni ko‘pincha o‘zining ichki dunyosini, ya’ni ijodiy yo‘lda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan kishi sifatida tasvirlaydi. Bunday obrazlar o‘zining yaratgan asarlarini mukammal qilishga intilishadi va shu bilan birga, bu jarayondagi bezovtalik va ichki izlanishlarni o‘qishga jalb qiladi.

Sh.Xolmirzayevning 80-90-yillarda yozgan asarlariga xos xususiyat shundaki, u asarlarini insonni tasvirlashga qaratadi. U ijodkorlarni, avvalo, inson sifatida tasvirlaydi. Masalan, “Yozuvchi” hikoyasida Odil Yo‘qubovni ijodkor sifatida emas, balki oddiy, kamtarin, shu bilan birga ma’rifatli, dovyurak inson sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, “Yozuvchi”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” kabi hikoyalarda ijodkor obrazlarining ichki dunyosi portret yordamida ifodalanadi. Masalan, “Yozuvchi” hikoyasida Odil Yo‘qubovning tashqi ko‘rinishi haqida to‘liq portret tasvirlanmaydi, balki uning qiyofasi hikoya matnida tarqatiladi. Faqat bir o‘rinda u Odil Yo‘qubovning portretini shunday chizadi: *“Oqi ko‘paygan siyrak sochi boshiga yopishib qolganday, tolasi qimir etmaydi”*[Xolmirzayev Sh. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2005. -B. 351]. Bu holat, ya’ni sochining tolasi qimir etmasligi, qahramonning qat’iyatli, irodasi mustahkam inson ekanligini ifodalasa, boshqa bir o‘rinda esa: *“Shunda yo‘lka adog‘ida boshiga oqqina qiyiqni chandib olgan, devqomat otam ko‘rinadi. Yanoqlarining kengligi bilan Odil akaga o‘xshab ketadi”*[Xolmirzayev Sh. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2005. -B. 355], deb qahramonni tashqi qiyofasini chizib beradi. “Yozuvchi” hikoyasida ijodkor obrazining tasvirida jamiyat va uning o‘zgarishlari bilan bo‘lgan munosabat ham katta ahamiyatga ega. Ijodkor shaxs jamiyatdagi mavjud muammolarga nisbatan o‘zining pozitsiyasini belgilaydi, u jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi, ammo ba’zan u bularni

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yakkama-yakka, individual kurash sifatida ko‘rib, o‘z izlanishlarini jamiyatning hozirgi holatidan ajratib ko‘rsatadi.

Sh.Xolmirzayevning “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida qahramon birinchi shaxsda so‘zlaydi, shuning uchun portret ishlatilmaydi. Ijodkorning qiyofasini berishda uning ichki monologi orqali tasvirlanadi. Misol uchun: *“Men hayotni yaxshi ko‘rar edim. Vassalom! Barcha tovlantishlari, hatto fojialari bilan... Ana shu hayotdan ko‘ngil sovudi-da, biror! Sosializmning barbod bo‘lganiga achinmayman. Lekin u bilan birga mening ham nimalarim barbod bo‘lganiga aminman: men inyonmagan qadriyatlar puchga chiqdi...Go‘yoki bugungi kungacha behuda yashagan ekanman...”*[Xolmirzayev Sh. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2005. - B. 355]. Bu o‘ylarga ko‘ra, ijodkor yashagan davrda ishongan qadriyatlari endi puchga chiqqan, va bu qalbni og‘ritadi. Ijodkorning ruhiy holati monolog orqali ifodalangan.

“Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida esa, ijodkorning jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishdagi kurashini tasvirlaydi. Yozuvchi, ijodkorni faqat tashqi omillar, jamiyatning bugungi kunidagi voqealar bilan kurashayotgan emas, balki o‘zining ichki dunyosini ham anglashga harakat qilayotgan shaxs sifatida tasvirlaydi.

“Qahramonlarning ichki kurashi” - bu Sh.Xolmirzayev hikoyalarida uchraydigan asosiy xarakterlardan biridir. Masalan, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida yozuvchi ijodkor obrazining ichki kurashini, uning go‘zal va to‘g‘ri so‘zlarni izlashdagi kechinmalarini tasvirlaydi. Bu kurash, bir tomondan, ijodkorning ideal va qadriyatlariga bo‘lgan ishonchi, ikkinchi tomondan esa jamiyatning unga qo‘ygan me‘yorlari o‘rtasidagi to‘qnashuvni ifodalaydi.

Yozuvchining hikoyalarida ijodkorlarning portretlari ularning tashqi ko‘rinishlaridan ko‘ra ko‘proq ichki holatlarini, ruhiy kechinmalarini aks ettiradi. Yozuvchi portretni tasvirlashda faqat tashqi jismoniy holatga e‘tibor bermaydi, balki personajning ichki dunyosini, fikrlarini, hissiyotlarini ham o‘zida aks ettiradi. Ijodkor portreti orqali uning ma‘naviy dunyosiga kirish, uning hayotdagi o‘rnini anglash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, muallif o‘z tasvirlari orqali ijodkorning haqiqiy hayoti va u uchun yozuvchilik jarayoni qanday muhim ekanligi ochib beriladi. Yozuvchilar portreti har doim o‘zining o‘ziga xosligini va zamonining ruhini ifodalovchi tasvir sifatida aks etadi.

Hikoyalardagi ijodkor obrazini ilmiy-nazariy tahlil qilishda, ularning individual xususiyatlari va badiiy tasvirlash usullarini chuqurroq o‘rganish zarur. Yozuvchining portret yaratish usuli uning badiiy tafakkurini va zamonining adabiy makonidagi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘rnini anglashda muhimdir. U ijodkorlarni shaxsiy kurashlar, ichki kechinmalar va hayotdagi muammolarni tasvirlash orqali zamonaviy adabiyotdagi yirik ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga yanada yaqinroq qiladi.

Adib hikoyalarida ijodkor obrazining xarakteri va portreti, badiiy tahlilda, aynan psixologik va ijtimoiy faktorlarning chuqur o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning asarlarida ijodkorning tasviri – uning ruhiy va ma’naviy yo‘li, dunyoqarashi va amaliy hayotdagi pozitsiyasi hamda boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarining aksidir. Hikoyalardagi ijodkorlarning orzulari va haqiqat bilan yuzma-yuz kelishi syujet voqealari asosida ochib boriladi. Ijodkor obrazini tasvirlashda yozuvchi haqiqatni o‘z orzulari va idealona fikrlari bilan solishtiradi. Hikoyalarida ijodkor ko‘pincha o‘zining orzu qilgan maqsadlariga erisha olmaydi, yoki shaxsiy hayoti, ijodi va jamiyatning real holati o‘rtasida muvozanatni topa olmaydi. Bu holat esa badiiy asarda ijodkor obrazining yanada murakkab, noaniq va jozibali bo‘lishiga olib keladi.

Masalan, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida ijodkor o‘zining yozgan asarlarida eng yuksak maqsadlarga erishish uchun kurashadi, lekin bu kurashda uning orzu va haqiqat o‘rtasidagi tafovutni yengish qiyinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tasvirlangan ijodkor obrazlarining qanday tasvirlanganligini, portret va psixologik tahlilni qanday qo‘llashlarini, qahramonning dunyoqarashi, xarakteri va ijtimoiy sharoitlarning tasvirga ta’sirini tahlil qildik. Hikoyalarda ijodkor obrazining xarakteri va portreti tasviri faqat tashqi ko‘rinish va sifatlar bilan cheklanmaydi. Yozuvchi ijodkorlarning ruhiy va psixologik holatlarini, ularning ichki kurashlarini va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini yoritishda katta mahorat ko‘rsatgan. Uning asarlarini tahlil qilish, nafaqat ijodkorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, balki ular orqali zamonamizdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni ham anglash imkonini yaratadi. Bu esa, adibning adabiyotdagi o‘rni va uning asarlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Yozuvchi hikoyalaridagi ijodkor obrazlari badiiy va psixologik jihatdan chuqur, ularning tasviri nafaqat tashqi voqealar, balki ichki dunyo va kurashlar orqali yoritiladi. Adib ijodkorni o‘zining shaxsiy kechinmalari, izlanishlari, orzulari va haqiqiy dunyo bilan yuzma-yuz kelishi orqali ta’riflaydi. Uning asarlarida ijodkor — bu nafaqat yozuvchi, balki jamiyatning o‘zgarishlariga, tarixga va insoniyatning ichki ruhiy holatiga bo‘lgan munosabati bilan ko‘rsatgan bir qahramondir.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Xalq merosi. 2004. – B.70.
2. Xolmirzayev Sh.Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 351.
3. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999. – B. 66.
4. Mahmudova Sh..A. Artistic psychologizm in uzbek literature of the twentieth century// Omega science. – Kirov,2019. <https://os-russia.com/arh-conf>
5. Mahmudova Sh. A. Ijodkor obrazining badiiy talqinida psixologizm. – Finland, 2023. – B. 544. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers . Volume-11| Issue-11| 2023 Published: |22-11-2023| <https://doi.org.-10.5281-zenodo.10116351>